

ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDA SIFAT VA SAMARADORLIKNI OSHIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Tursunova Gulsora Adahamjon qizi

Andijon Davlat Pedagogika Instituti

Pedagogika yo`nalishi magistranti

Tursunovagulsora99@gmail.com

ORCID: 0009 0007 7525 8160

Andijon Davlat Pedagogika instituti

f.f.d **M.J.Mahammatova**

Annotatsiya : Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim tizimidagi sifat va samaradorlik tushunchalari, ularni oshirishda yuzaga kelayotgan pedagogik muammolar tahlil qilinadi va ilg'or xorijiy tajribalar misolida xulosalar beriladi hamda ularni O'zbekiston ta'lim tizimi uchun moslashtirish texnologiyalari taklif etiladi. Shuningdek, ta'lim sifatini ta'minlashga doir mavjud muammolar, ularni hal qilish mexanizmlari, ilg'or xorijiy tajribalarning o'rni hamda zamonaviy yondashuvlar tahlil qilinadi. Ilg'or xorijiy tajribalar, innovatsion texnologiyalar hamda ta'lim jarayonidagi muammoli holatlar asosida tavsiyalar beradi. Shu bilan birga, O'zbekiston ta'lim tizimidagi mavjud holat tahlil qilinib, rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish asosida muammoning amaliy yechimlari taklif etiladi.

Kalit so'zlar: Finlandiya, Janubiy Koreya, ta'lim sifati, samaradorlik, pedagogik muammo, innovatsiya, zamonaviy texnologiyalar, ta'lim tizimi.

ANNOTATION: This article analyzes the concepts of quality and efficiency in the modern education system, as well as the pedagogical issues arising in the process

of their improvement. It provides conclusions based on advanced international experiences and proposes technologies for adapting these practices to the education system of Uzbekistan. Furthermore, it examines the current problems related to ensuring education quality, mechanisms for addressing them, the role of leading foreign experiences, and modern approaches. Based on advanced global practices, innovative technologies, and problematic situations within the educational process, the article offers relevant recommendations. Additionally, the current state of the education system in Uzbekistan is analyzed, and practical solutions to existing issues are proposed by studying the experiences of developed countries.

KEYWORDS: Finland, South Korea, education quality, efficiency, pedagogical issue, innovation, modern technologies, education system.

АННОТАЦИЯ: В данной статье анализируются понятия качества и эффективности в современной системе образования, а также педагогические проблемы, возникающие в процессе их повышения. Приводятся выводы на основе передового зарубежного опыта и предлагаются технологии адаптации этих практик к системе образования Узбекистана. Также рассматриваются существующие проблемы обеспечения качества образования, механизмы их решения, роль передового международного опыта и современные подходы. На основе прогрессивного мирового опыта, инновационных технологий и проблемных ситуаций в образовательном процессе даются рекомендации. Кроме того, анализируется текущее состояние системы образования Узбекистана, и предлагаются практические решения проблем, основанные на изучении опыта развитых стран.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Финляндия, Южная Корея, качество образования, эффективность, педагогическая проблема, инновации, современные технологии, система образования.

KIRISH. Hozirgi davrda ta'lim sifatini oshirish muhim strategik maqsadga aylangan. Bunda zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim samaradorligini ta'minlash har qanday jamiyat taraqqiyotining negizidir. Ammo bu jarayonda pedagogik muammolar ham mavjud bo'lib, ularni ilmiy asosda tahlil qilish taqozo etiladi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda Prezident farmon va qarorlarida ta'lim sifati ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan [1. 12-b.]. Bugungi kunda ta'lim tizimining eng dolzarb muammolaridan biri ta'lim sifatining pasayishi va samaradorlikning yetarli darajada bo'lmasligidir. Bu muammo nafaqat o'quvchilarning natijalariga, balki jamiyatning umumiy rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, pedagogik jarayonlarda ta'lim sifatini va samaradorligini oshirish muhim pedagogik masala sifatida paydo bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili. Zamonaviy ta'lim tizimida sifat va samaradorlikni oshirish masalasi bugungi kunda nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish yuzasidan qator olim va tadqiqotchilar izlanish olib borgan bo'lib, ularning asarlarida turli jihatlar yoritilgan. J.

Boltaboyeva o'zining "Pedagogik mahorat" nomli asarida sifatli ta'limning mezonlarini tahlil qilib, o'qituvchi malakasi, ta'limning mazmuni, metodik yondashuvlar va o'quvchi motivatsiyasi kabi omillarni ta'lim sifati bilan bevosita bog'laydi. Muallif ta'lim sifati — bu o'quv jarayonining to'laqonli tashkil etilishi va natijadorlik darajasi ekanligini ta'kidlaydi [2.45-b.].

N. Xolboeva zamonaviy o'qitish metodlari, xususan, interfaol yondashuvlar ta'lim samaradorligiga qanday ta'sir qilishini o'rgangan. U ta'lim samaradorligini oshirishda o'quvchining mustaqil fikrlashi, baholash mezonlarining ochiqqligi va o'qituvchi-o'quvchi munosabatlari muhimligini alohida ta'kidlaydi. Xolboevaga ko'ra, "innovatsion metodikalar o'quvchini faol tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi" [3. 52-b.] Pedagog olim X. Turdaliyev ta'lim tizimidagi sifatni oshirishni davlat siyosati, strategik rejalashtirish va boshqaruv bilan bog'laydi. Uning fikricha, ta'lim sifati faqat o'quv jarayoni bilan emas, balki butun tizimni optimallashtirish, byudjet

mablag'larining to'g'ri taqsimlanishi va monitoring tizimining ishlashi bilan ham chambarchas bog'liq [4. 61-b.].

Xalqaro miqyosda mashhur tadqiqotchi Pasi Sahlberg "Finnish Lessons" nomli kitobida Finlandiya ta'lim tizimidagi muvaffaqiyatlarni tahlil qiladi. Uning ta'kidlashicha, o'qituvchiga berilgan erkinlik, yuqori kasbiy tayyorgarlik, va darsdan tashqari faoliyatlarga berilgan e'tibor Finlandiyada ta'lim sifatini oshirgan asosiy omillardir [5].

Lee Ju-Ho o'zining tadqiqotlarida Janubiy Koreyada ta'lim sifatini oshirishda AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari), qat'iy baholash tizimi va o'quvchilarning uzluksiz rag'batlantirilishini muhim omil sifatida qayd etadi. Unga ko'ra, "sifatli ta'lim – bu faqat bilim emas, balki raqobatbardosh shaxsni shakllantirish jarayonidir" [6].

Tadqiqot metadalogiyasi. Ta'lim sifati - bu o'quvchilarni ilmiy, axloqiy, madaniy va ijtimoiy jihatdan rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayonning samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichdir. Ta'lim sifatini oshirish o'quvchilarning bilim darajasini, ularga qo'yilgan pedagogik talablarni, o'qituvchining malakasi va metodik ishlash usullarini yaxshilashni anglatadi. Yaxshi ta'lim tizimi o'quvchilarning nafaqat akademik bilimlarini, balki ularning shaxsiy rivojlanishini ham ta'minlashi kerak. O'zgarishlar, innovatsion metodlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali ta'lim sifatini oshirish maqsadga muvofiqdir. J.Boltaboyeva ta'lim sifatini quyidagicha tavsiflaydi: "Sifatli ta'lim — bu shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydigan, bozor talablari va ijtimoiy ehtiyojlarga mos keladigan ta'limdir" [7. 37-b.]. UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan sifat mezonlari ham mavjud bo'lib, ularda ta'limga qulaylik, pedagogik yondashuvlar va baholash tizimining shaffofligi asosiy ko'rsatkich sifatida qayd etilgan [8]. Ta'lim samaradorligi ta'lim jarayonining o'quvchilarga ta'sirini o'lchash va baholashni anglatadi. Samaradorlik o'quvchilarning bilim olish darajasi, ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, individual yondashuvlar va metodik strategiyalar asosida baholanadi. Samaradorlikni oshirish uchun ta'lim tizimida yangi pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar va innovatsiyalarni joriy etish zarurdir. Shu bilan birga, ta'lim samaradorligini oshirish

uchun muhim omillar sifatida o'qituvchilarning professionalligi, o'quv materiallarining yangilanishi va infratuzilmaning takomillashuvi ko'rib chiqilishi lozim. Pedagogik samaradorlik — bu o'quv jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlikning natijadorlik darajasidir. Ta'lim sifatini va samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan pedagogik muammolar bir nechta asosiy jihatlarni o'z ichiga oladi: *Innovatsion metodlarni joriy etish*: Ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, masalan, internet va raqamli texnologiyalarni qo'llash ta'lim samaradorligini oshirishga katta ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilarni interaktiv darslarda ishtirok etishga undash, masofaviy ta'lim tizimlarini samarali tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

O'qituvchining malakasini oshirish: Ta'lim samaradorligini oshirishda o'qituvchining pedagogik malakasi va metodikasi muhim omil hisoblanadi. O'qituvchilarni yangi pedagogik yondashuvlarga, metodlarga va texnologiyalarga tayyorlash ta'lim sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Shaxsiylashtirilgan ta'lim: Har bir o'quvchining individual ehtiyojlarini hisobga olish, o'qish usullarini moslashtirish ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Buning uchun o'quvchilarga individual yondashuvlarni qo'llash, ularning qiziqishlari va qobiliyatlariga qarab o'quv rejalarini tuzish kerak.

Baholash tizimini takomillashtirish: O'quvchilarning bilimlarini baholashda faqat testlar yoki sinovlar asosida qaror qabul qilmasdan, ularning umumiy rivojlanishi, kreativliklari va ijtimoiy faoliyatlari ham inobatga olinishi zarur. Yangi baholash usullari o'quvchilarning faolligini, mustaqil fikrlashini va ijodiy yondashuvini rivojlantiradi. Bu yerda quyidagi muammolar uchraydi: Ta'lim texnologiyalarining eskirganligi; O'qituvchilarning innovatsion yondashuvlardan foydalanmasligi; O'quv dasturlarining real hayotga mos kelmasligi. O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlarga qaramasdan, hamda ayrim ta'lim muassasalarida metodik yondashuvlar zamonaviy talab darajasida emas. Masalan, N.Xolboeva o'z tadqiqotida shunday deydi: “O'qituvchilar tomonidan interaktiv

metodlarga yetarlicha e'tibor berilmayotgani, ta'lim samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda" [9. 52-b.].

Tadqiqot natijalari. Finlandiya, Janubiy Koreya va Singapur ta'lim tizimlarida sifat va samaradorlik ustuvor o'rinda turadi. Masalan, Finlandiyada o'qituvchilar mustaqil metodik yondashuvga ega va doimiy ravishda kasbiy rivojlanib boradi. Janubiy Koreyada esa o'quvchilarni motivatsiyalash va individual yondashuv asosiy omil sifatida ko'riladi. Bu tajribalarni O'zbekiston ta'lim tizimiga moslashtirish, xususan, elektron darsliklar, raqamli platformalardan foydalanish orqali muammolarni kamaytirish mumkin. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib quydagi taklif va tavsiyalarni berib o'tamiz.

Pedagoglarning doimiy malaka oshirishi uchun zamonaviy, interaktiv o'quv kurslarini ko'paytirish. Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni joriy etish va ular orqali o'quvchilar motivatsiyasini oshirish. Baholash tizimini isloh qilish – test va nazariy bilimlarga asoslangan emas, balki amaliy ko'nikmalarga tayangan yondashuvni joriy etish. Ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish – ularni ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish. Innovatsion metodlarni joriy etish – loyihaviy o'qitish, STEAM ta'lim, gamifikatsiya (o'yin elementlari asosida o'rgatish) va boshqalar. Hududiy farqlarni bartaraf etish – qishloq va shahar maktablari o'rtasidagi ta'lim sifatidagi tafovutni kamaytirish chora-tadbirlarini kuchaytirish.

Xulosa qilib shuni aytilish kerakki, zamonaviy ta'lim tizimida sifat va samaradorlikni oshirish — kompleks yondashuvni talab qiladigan muhim pedagogik masaladir. Ta'lim sifatining oshishi nafaqat pedagoglar va o'quvchilar faoliyatiga, balki davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlariga ham bog'liq. Innovatsion yondashuvlar, doimiy rivojlanish, ochiqlik va hamkorlik – ta'lim samaradorligini

oshirishning asosiy omillaridir. Shunday qilib, ta'lim tizimida ta'lim sifatini va samaradorligini oshirish pedagogik muammo sifatida dolzarb bo'lib, bu masala ta'lim jarayonidagi har bir ishtirokchining faoliyatini yaxshilashga qaratilgan. Innovatsion metodlarni joriy etish, o'qituvchilarning malakasini oshirish, shaxsiylashtirilgan ta'lim va baholash tizimini takomillashtirish orqali ta'lim samaradorligini oshirish mumkin. Zamonaviy ta'lim tizimida sifat va samaradorlikni oshirish – bu nafaqat texnik, balki chuqur pedagogik muammo hisoblanadi. Uni bartaraf etish uchun tizimli yondashuv, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish va xalqaro tajribani o'rganish muhim ahamiyatga ega. Ta'lim sifatini oshirish faqatgina bilimlarning miqdorini oshirish emas, balki o'qituvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Ta'lim tizimi bugun va kelajakda jamiyatning har tomonlama rivojlanishi uchun asosiy vosita sifatida qoladi. Shuning uchun ta'lim sifatini oshirish masalasi har doim dolzarb bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent: Adolat, 2021. – 12 b.
2. 1. Boltaboyeva J. Pedagogik mahorat. – Toshkent: O'qituvchi, 2019. – 45 b.
3. 2. Xolboeva N. Interfaol metodlar – ta'lim sifati garovi. // "Pedagogik mahorat" jurnali, 2022, №3. – B. 50–54.
4. Turdaliyev X. Ta'lim sifati: tizimli yondashuv va istiqbol. – Toshkent: Fan, 2020. – 136 b
5. Sahlberg P. Finnish Lessons: What Can the World Learn from Educational Change in Finland? – New York: Teachers College Press, 2015. Lee J. South Korea's Education Success: Strategies for Quality and Equity. // OECD Education Working Papers, 2021.
6. 6. Lee, J. South Korea's Education Success. // OECD Education Working Papers, 2021.
7. Boltaboyeva J. Pedagogik mahorat. – Toshkent: O'qituvchi, 2019. – 37 b8

8. UNESCO Global Education Monitoring Report. 2022. –
<https://unesdoc.unesco.org>
9. Xolboeva N. Interfaol metodlar – ta’lim sifati garovi. // “Pedagogik mahorat”
jurnali, 2022, №3. – B. 52.